

**OCH TUSLI BO‘Z TUPROQLARNING TARQALISHI VA  
O‘ZBEKISTONDA KARTOSHKKA HOSILDORLIGINI OSHIRISH  
USULLARINI O‘RGANISHDAGI TADQIQOTLAR**

*Qodirov Muxriddin Sayfiddin o‘g‘li. o‘qituvchi, Termiz davlat universiteti, Termiz  
Ne‘matova Mohida Tillo qizi magistr, Termiz davlat universiteti, Termiz*

**Annotatsiya:** Och tusli bo‘z tuproqlarning tarqalishida iqlimning o‘rni katta , och tusli bo‘z tuproqlar tarkibidagi chirindi va boshqa xususiyatlariga ko‘ra bir qancha guruhlariga bo‘linadi.

**Kalit so‘zlar:** Och tusli bo‘z tuproqlar, tuproqlarning tarqalish qonuniyatlari, tuproqlar ona jinsi, bo‘z tuproqlarni o‘rganishdagi tadqiqotlar.

**Аннотация:** Климат играет большую роль в распространении светлых сероземов, содержании гумуса и других свойствах светлых сероземов.

**Ключевые слова:** Бледные сероземы, закономерности распределения почв, материнские породы почв, исследования по изучению сероземов

**DISTRIBUTION OF LIGHT GRAY SOILS AND RESEARCH ON  
METHODS TO INCREASE POTATO YIELD IN UZBEKISTAN**

**Mukhriddin Sayfiddinovich Kodirov** – Teacher, Termez State University,  
Termez, Uzbekistan

**Mohida Tilloyevna Ne‘matova** – Master's Student, Termez State University,  
Termez, Uzbekistan

**Annotation:** Climate plays a big role in the distribution of pale gray soils, humus content and other properties of pale gray soils

**Key words:** Pale gray soils, laws of distribution of soils, mother rock of soils, researches in the study of gray soils.

**KIRISH.** Surxon - Sherobod vohasi tuproq sharoitini o‘rgangan olimlar S.S.Neustiruyev, I.P.Gerasimov, N.V.Kimberglar hisoblanadi.

Vohada sug'oriladigan yerlar Surxondaryo, Sheraboddaryo, Amudaryo suvlaridan va mavjud suv omborlaridan sug'oriladi.

Surxon-Sherobod vohasi geomorfologik tuzilishiga kora ikki qismga bo'linadi:

1. Tog'li qism.

2. Tekislik qism.

Sug'oriladigan yerlar sharoitiga kora ikkita katta guruhga bo'linadi:

"O'ZGIPROZEM (1970 y.) ma'lumotlariga ko'ra,

1. Bo'z tuproqlar qismi- qaysiki to'q rangli boz tuproq, tipik bo'z tuproq, och rangli bo'z tuproq bo'z- o'tloqi tuproq va botqoq tuproqlar tarqalgan.

2. Cho'l qismi (taqir) bo'z qongir, taqir, taqir o'tloqi, cho'l, qumoq, gul o'tloqi va shorxok tuproqlar tarqalgan. Surxondaryo viloyatining umumiy yer maydoni 2059,9 ming ga bo'lib, shundan foydalaniladigan qismi 450,2 ming ga, sug'oriladigan maydon 333,8 ming ga, qolgan 1358,7 ming ga maydon tog'lik daryo va ko'l hamda boshqa yerlarni tashkil etadi.[12]

Bo'z qo'ng'ir tuproqlar maydoni 6793 ga taqir tuproqlar - 825684 ga taqir-o'tloqli tuproqlar 10645 ga, qumoq tuproqlar -9358 ga, cho'l o'tloqi tuproqlar - 46417 ga va sho'rxoklar -21506 gektarni tashkil etadi.[12]

Viloyatda asosan qadimdan sug'oriladigan och tusli va tipik bo'z tuproqlar ikkinchi qayir usti terrasasida va tog' oldi tekisliklarida tarqalgan.[12]

Tuproq hosil qiluvchi ona jinsi asosan lyoss hamda allyuvial yotqiziqlardan iborat bo'lib, yuqori karbonatlilikka ega. Shuning uchun tuproq suvli so'rim muhiti neytral va kuchsiz ishqoriydir. Surxondaryo viloyati tuproqlari Surxon- Sherobod tog' tizmalari orasida joylashgan bo'lib, kompleks allyuvial yotqiziqalaridan iboratdir.

Bu yotqiziqalarning tagida shag'al, qumoq va soz qatlamlariga ega bo'lgan qatlam-qatlam joylashgan jinlar mavjud. Daryo o'zanidan tashqari, allyuvial tekislik uchta terrassaga bo'linganligi yaqqol sezilib turadi.[14]

Birinchi terrassa lentasimon cho‘zilgan bo‘lib, tuproqlari qalin shag‘al qumlar bilan qoplangan, ba’zida qumloq keltirilmalar ustida hosil bo‘lgan. Sizot suvlari yuzada (0,5 - 1,0 m), sho‘rlanmagan.

Ikkinchi terrassa birinchisidan 5-7 m. baland tekisliklarida joylashgan bo‘lib, allyuvial va agroirrigatsion keltirilmalar ustida paydo bo‘lgan.

Bu mintaqada gidromorf tuproqlar tarqalgan bo‘lib, sug‘oriladigan va eskidan sug‘oriladigan tuproq qatlamlarida agroirrigatsion keltirilmalar ko‘p uchraydigan o‘tloq-bo‘z tuproqlar tarqalgandir.

Tuproq qatlamlari mexanik tarkibiga ko‘ra ko‘pincha bir xil bo‘lib, og‘ir va o‘rta qumoqdir. Sizot suvlari 4-5 m chuqurlikda joylashgan, sho‘rlanmagan.

Uchinchi terrassa ikkinchisidan 15-20 m balandlikda joylashib, ayrim mintaqalarda ushbu yuqorilik sezilmaydi. Ikkinchi terrasadana kengrok maydonlarni egallab, kuchsiz to‘lqinsimon past-tekisliklardan iborat bo‘lgan holda asta-sekin tog‘ etagi tekisliklariga tutashib ketadi.[14]

O‘tloq-bo‘z tuproqlar mexanik tarkibiga ko‘ra og‘ir va o‘rta qumoqli, fizik soz va changning ko‘pligi (45-55%) bilan ifodalanadi. Yirik fraksiyalarning mineralogik tarkibi kvars, dala shpati, gidroslyuda va kalsiydan iborat. Yuqori dispers minerallardan gidroslyudalar, montmorillionit guruxiga kiruvchi minerallar hamda xlorit, vermikulit va amorf moddalar uchraydi. O‘tloq-bo‘z tuproqlarning asosiy xususiyatlaridan biri karbonatlarning va gumus miqdorining ko‘pligidir. O‘tloq-bo‘z tuproqlar singdirish sig‘imi 12-14 MG /100 g tuproqda atrofida bo‘ladi.[9.10]

Singdirilgan kationlarning 60-75 foizi  $Sa^{2+}$ , 10-15 foizi  $Mg^{2+}$  ioniga to‘g‘ri keladi. O‘tloq-bo‘z tuproqlar singdirish sig‘imining 7-8 foizi K va Na ioniga to‘g‘ri keladi. K ioni Na ioniga nisbatan ko‘p miqdorda uchraydi. Madaniylashgan tuproqlarning yuqori qatlamida Na deyarli uchramaydi.[9]

Surxon Sherobod vohasi O‘zbekiston Respublikasining eng janubiy qismida  $37^{\circ}$  ,  $39^{\circ}$  shimoliy kenglik va  $68^{\circ}$ ,  $67^{\circ}$  sharqiy uzunlik chegarasida, Surxon va

Sherobodaryo havzasida joylashgan. Ma'muriy jihatdan u Surxondaryo viloyati hududidir.[10]

Surxondaryo viloyati sharq va shimoliy sharqdan Tojikiston Respublikasi, shimoliy g'arbdan Qashkadaryo viloyati, janubiy g'arbdan Turkmaniston Respublikasi bilan chegaradosh. Viloyatning janubidan Amudaryo oqib o'tib, 160 km. lik chegara chiziqlari Respublikamizni Afg'onistondan ajratib turadi.

Viloyat dengiz sathidan 300-4688 metr balandlikda joylashgan bo'lib, shimoldan janubga 200 km.ga, g'arbdan sharqqa 160 km ga cho'zilgan.

**Xulosa qilib shuni aytish mumkinki.** Turli tuproq iqlim sharoitlarida ayniqsa, respublikamizning Shimoliy va Markaziy mintaqalari sharoitida ertagi kartoshka turli navlarining o'sishi xosildorligi, urug'lik sifati va tuganaklarning biokimyoviy tarkibiga ekish muddatlari va chuqurligi, ekish sxemalari, tup rivojlanishi, qalinligi, mineral oziqlanishi, sug'orish rejimi kabi tadbirlarning ta'siri o'rganilgan.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.

1. Ortiqov M., Ostonaqulov T., Hamzaev A. Gollandiya kartoshka navlarini parvarishlash. //J. O'zbekiston qishloq xo'jaligi. - T., 1996
2. Saidov M . Normuratov O.U, Qodirov.M.S “Och tusli bo'z tuproqlar sharoitida har xil me'yordagi organik va azotli o'g'itlarning kartoshka hosildorligiga ta'sirini ilmiy asoslash “Хоразм Маъмун академияси илмий журнал. 2023-№11/1 (108), 251 б <http://mamun.uz/uz/page/56>
3. Zokirov X.X, Qodirov.M.S, **Zayirova D.M “Organik va azotli o'g'itlarning kartoshka hosildorligiga ta'siri” Хоразм Маъмун академияси илмий журнал. 2024 й -№4/1 (113), 2024 й. - <http://mamun.uz/uz/page/56>**

**4.Zokirov X. X., Qodirov M. S “Och tusli bo‘z tuproqlar sharoitida har xil meyordagi organik va azotli o‘g‘itlarning kartoshka hosildorligiga ta’siri” mavzusida maqola T 2022**

**5.Zokirov X. X., Qodirov M. S., “Biologiyada zamonaviy tadqiqotlar muammolar va yechimlar” Xalqaro ilmiy amaliy kanfrensiya Termiz. 2022**

6.Murodov V. Q., “Organik o‘g‘itlarning o‘tloq tuproqlar unumdorligi hamda g‘o‘za oziqlanishi va hosildorligiga ta’siri”

7.O‘sarov I. , Jo‘raeva Z., “Kartoshka hosildorligi va urug‘lik sifatiga tashqi muhit omillarning ta’siri.”

8.Usmonov N.N. Kartoshka xosildorligi va urug‘lik sifatiga sediratlarning ta’siri Avtoref. q.x.f.n diss Samarqand 2007

9.Xamzayev A.X., Agratexnologik omillarning kartoshka hosildorligiga,saqlanuvchanligi va urug‘lik sifatiga ta’siri:Aftoref. q.x.f.n diss. Samarqand.,2002